

**“POYTAXT BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATI YAGONA AKSIYADORINING
2-SONLI QARORI
KO’CHIRMA**

Toshkent shahri

20 aprel 2026 yil

Kun tartibi:

1. “Poytaxt Bank” AJ Boshqaruv raisi Pulatov Dilshod Akmalevich bilan tuzilgan mehnat shartnomasini taraflarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra bekor qilish hamda uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish masalasini ko‘rib chiqish.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 79-moddasi 7-qismiga muvofiq, jamiyatning ijroiya organlarini tuzish hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, agar jamiyat ustavida ushbu masalalarni hal etish jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilmagan bo‘lsa, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

Bank Ustavining 126-bandiga ko‘ra, Bank Boshqaruvi raisini tayinlash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish Bankning yagona aksiyadori vakolatiga kiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Bank Boshqaruvi raisi Pulatov Dilshod Akmalevich bilan tuzilgan mehnat shartnomasini taraflarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra bekor qilish hamda uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish masalasi Bankning yagona aksiyadori muhokamasiga kiritildi.

Mazkur masalani ko‘rib chiqib, Yagona aksiyador

QAROR QILADI:

“Poytaxt Bank” AJ Boshqaruv raisi Pulatov Dilshod Akmalevich bilan tuzilgan mehnat shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 157-moddasiga muvofiq, taraflarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra 2026 yil 20 apreldan bekor qilinsin hamda uning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin.

Majlis kotibi:



O.A. Shermuhamedov